

Anchadan beri o'ylab yurgan hajviyamni o'tgan kuni bir o'tirishda yozib tashladim. Bu bir tashmachi to'g'risida edi. U odam har kuni eshagining xurjuniga 100 litrlik yelim idishlarda solyarka ortib, qo'shni respublikaga o'g'rincha yo'llar bilan o'tkazib sotib yurardi...

Hajviya rosa kulgili chiqdi. Ayniqsa, posbon quvlab, eshagi yiqilib, solyarka to'kilib, tashmachining oyog'i sinib, qo'lga tushib turgan joyi juda kulgili. Yozganlarimni qayta-qayta o'qib, qiqir-qiqir kulaman. Yarim tunda hajviyam esimga tushib, "xo-xo"lab yuboribman. Xotinim ko'zi qinidan chiqqudek bo'lib uyg'onib ketdi.

Ha, ha. namuncha yarim tunda ayg'irdek kishnab yubordingiz?! Nima balo, tushingizda "Yaxshi niyat"dan Neksiya yutdingizmi? O'takamni yordingiz-e, he o'lmbabsiz, deb jerkidi u ko'kragiga tuflyay-tuflyay.

Bir zo'r hajviya yozuvdim, shuni eslab kulib yuboribman. Uzr, xotin.

Ho-o, yoqmay o'lsin. Sizga birovlarning ustidan kulish bo'lsa. Ja-a kulgili bo'lsa, anovi minatyurachilarga yuboraqoling, boshqalar ham kulsin.

G'fborardim-u, lekin avvalgi minatyurachilar yo'q-da.

Voy nega? Qayoqqa yo'qolishibdi?

Ba'zilari nafaqaga chiqqishgan, qolganlari o'zlarini reklamaga urishganmish...

Nimani reklama qilishar ekan?

He-e, nimani bo'lardi, to'g'ri kelganini qilaveradi-da. Pampersmi, tampeksmi taglatta-yu kirsovonlarmi, farqi yo'q, pul bersa bo'lgani...

Unday bo'lsa, gazetaga beraqoling.

Ular ham bosishmaydi.

Ie, nega? To'rtinchi betga bosishardi-ku?!

Hozir to'rtinchi betga har xil reklama, to'yxatlarni bosishadi. Hajviyadan nima foyda...

E-e, shoshmang. Unday bo'lsa menga beraqoling. Ertaga o'quvchilaringga beraman. Havaskorlik to'garagida intermediya qilishadi, dedi nihoyat xotinim jonimga oro kirib.

He yashavor, xotinjon. Shunday qil-e...

Qani, avval o'zim bir o'qib ko'ray-chi, deb o'rnidan turib chiroqni yoqdi.

Yarim tunda o'qituvchiligi tutib ketib, ko'zoynagini peshonasiga qo'ndirdi-da ko'rpaning ustiga muk tushganicha qo'lga qalam olib qo'lyozmamni tekshiraketdi. Men esa issiq o'rindan boshimni chiqqanimcha uni kuzatayapman. Hozir kuladi. Endi kulib yuboradi. Ana, ana boshlandi... O'zim esa undan oldin ko'rpani tishlab ovozsiz kulyapman, desangiz. Xotinim esa o'qiyapti.

Og'ziga qarab turibman. Koshki bir tirjayib qo'ysa. Gazeta muharrirlariday savuqqon. Tavba?! Hajviyamni o'qigan sayin qovoq-tumshug'i osilib, ko'zlari qisilib, lablari cho'chchayib keta boshladi. Ie, bu yog'i qandoq bo'ldi endi?!

E-e, bu hajviya emas tragediya bo'libdi-ku. Bir bechora tirikchilik deb oyog'ini sindiradi-yu siz kulasizmi?! Bo'maydi... deb u qo'lyozmamni otib yuborsa bo'ladimi. Ustimdan ko'rpani otdim.

Hoy, nega otasan? Undan ko'ra bir shapaloq urib qo'yaqol, dedi qizarib-bo'zarib. Qarasam, xotinim ham qizarib ketyapti.

Uraman ham. Vey chol, sizga necha marta aytaman, ovul-hamsoyani yozmang, deb. Sizning dastingizdan ko'cha-ko'yda bosh ko'tarib yurolmay qoldim-ku. Hamma "Eringiz meni yozibdi" deb ta'na qilgani qilgan. Tunov kuni tovuqboqar Misqol manqa ham tuxum olaman deb pul ko'tarib borsam, "Xendi sizlarga tuxum mermayman. Xeringiz xerimni miyonista deb yozibdi. Ichsa xuzimning mulimga ichadi-da. Nima haqi bor yozishga?!" deb rosa ming'illadi

He tuxumi qursin o'sha manqangni. Mastni mast deydi-da.

Siz shunday deyaverasiz-da. Gapni esa biz eshitamiz. Endi manovingizda ham yana qo'shnilarni yozibsiz. Kimga kerak shu?!

Qani? Kimni yozibman? Manovi qo'shnilarning solyarkani velosipedda tashib sotishadi. Hajviyamda esa eshakda, farqi bor-ku...

Mana, mana. Turdiev deb qo'yibsiz-ku?!

Obbo, shuyam gap bo'ldi-yu. Ha endi, biron familiya qo'yishim kerak-ku. Nomsiz bo'ladimi?... Bo'пти. O'zgartiraman. Kel, ana, To'raev bo'laqolsin.

Ibi o'lay, To'raev ikki uy naridagi usta-ku?!

Nima qipti?! Usta solyarka sotmaydi. Qaytamga yaxshi-da... Ha, bor ana, Qurbonov bo'laqolsin. Bo'ldimi?

E-e, nima deyapsiz? Qurbonov akam-ku. Hah siz-ey. Ichingiz qora-da. Bechora akamning bir-ikki quti qandolat o'tkazib sotganini ham ko'rolmapsiz-a...

O'zimizning rizqimizni chetga tashmalab sotganlar menga do'st emas. Akang bo'lsa ham halol ishlab pul topsin...

Voy-voy-ey. O'rgildim sizdaqa halol pul topuvchi nomi ulug' supراسi quruq haqiqatchidan. Halol pulga yashaganingiz uchun ham bolalar bir oyda bir marta go'shtlik ovqat yemaydi-da... Uf-f... Oylik maoshga yashagandan so'ng go'r bo'larmidi. Yoshim ellikka kirib ham bo'ynim bir tizim marjon ko'rmay o'tyapti...

Qarasam, yarim tunda yana o'sha eski mashmasha.

Bo'ldi, bo'ldi. Diydiyongni bas qil-e, xotinimning chakagini yopdim. Mavzudan chetga chiqmaylik. Xo'sh, unda nima deb qo'yamiz? O'zing ayt bo'masam.

Xotinim jimjilog'ining tirnog'ini kemirganicha shippa qarab, tashmachiga nom izlay ketdi. So'ng birdan ko'zlari porlab:

Topdim. Hayvonlarning nomini qo'ying, dedi chiyillaganicha.

Nima deb? Bo'riev debmi? dedim esnoq tutib uvillaganimcha.

Voy, yo'g'-e, u pashsha qo'riganday qo'lini silkitdi. Bo'maydi. Bo'riev maktab direktorimiz-ku. U bechora ham bo'sh vaqtlarida shalog'i chiqqan "Moskvich"ida bug'doy o'tkazib sotarmish...

Ha-a, ana o'shalarning kasriga bozorda bug'doy narxi osmonga chiqib ketdi.

He qo'ying, dadasi. Ko'rolmay yozgan deb xafa bo'ladi. Mening ishimdan qildan qiyiq axtarib qolmasin tag'in...

Unda Qo'chqorov bo'la qolsin.

Ie, anovi, o'zlaringda zapravkachi bo'lib ishlaydigan odammi? Benzin o'tkazib sotadi demabmidingiz. Qanday bo'larkin-a?!

Ha-ya... Bo'пти, kel, Do'ltaev bo'laqolsin.

Voy, nega endi? U tog'avachcham-ku?! Bechora yaqinda ikki tonna shakarini tamojnyaga oldirib qo'ydi. Kuyi-ib o'tiribdi...

Obbo Do'ltaev-ey. Axiri qo'lga tushibdi-da. Bosar-tusarini bilmay qoluvdi-ya... Ha mayli, unda asbob-uskunalaridan qo'yamiz.

Boltaev bo'la qolsin. Bol-taa-eb. Zo'r-a?!

Atay shunday qilyapsizmi? Tilingizga faqat mening urug'larim keladimi? O'zingizning anovi, xitoydan "adnarazoviy" shara-bara

This is not registered version of TotalDocConverter
opkele bo'ladigan bo'lingizni nega yozmaysiz? Bular bo'lam bo'ladi-ku?!

Ie shunaqami? UZR, uzr. Bo'lang ham ko'p-da o'ziyam. Bu qaysi biri edi?

Voy, nega bilmaysiz? Ha-a, ana shunaqa-da. Menikilar bilan bordi-keldi qilmagach, go'r bo'larmidi... Easingizdami, hu-u bir marta melisa quvdi deb uyimizga bir moshin oq yog' bilan qochib kirgan edi-ku. O'sha-da...

O'shami? He turqi qursin o'sha bo'langni. O'shanda mahalladagilar bizni ham tashmachilik qilar ekan, deb gumonsirab qolvudiy...

Koshki edi shunday bo'lsa. Birimiz ikki bo'lib qolarmidi haligacha. Odamlar shu tashmachilikdan boyib, uy quryapti, mashina olyapti...

Obbo. Muallim bo'lsang ham baribir xotiningizga borasan-da, xotin. Ko'pam o'sha harom pul topuvchilarga havas qilavermasang-chi. Uning oxiri voy. Shu oylikkinangga yashab turganing g'animat. Och qornim tinch qulog'im...

Uf-f... Shundayku-ya. Lekin ba'zan ularning shohona yashashini ko'rib kuyunib ketasan-da kishi. Unga yarasha oylik o'lgurni ham vaqtda olamayapmiz...

He-e, ko'pam kuyunaverma. Kelajakda bari yaxshi bo'lib ketadi. Kelajak buyuk...

Ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin-e...

Ha, bu boshqa gap. Ammo-lekin yana chalg'ib ketding-a. Xo'sh, nima deb qo'yamiz manovi tashmachining nomini?

E-e, yana boshladingizmi?! He bilganingizni qo'ying-e, Toshmirzami, Eshmirzami deb qo'yaveringda-e... Auuff... shunday deb xotinim ko'rpani boshiga tortdi.

Mening esa uyqum qochdi. Doim shunaqa. Hajviyamni avval xotinim o'qiydi va albatta biron kamchilik topadi. So'ng uni to'g'irlayman deb mening halovatim yo'qoladi. He-e nimasini aytasiz. Mana, bir o'rim sochi ajdardek o'ralib, xotinim allaqachon uyquga ketgan. Men esa hali ham tashmachi qo'shninga tuzukroq nom topolmay, "Yo'zsam yomon ko'rarlar, yozmasam armon" deb, oq qog'ozga tikili-ib o'tiribman.

Birdan uyqudagi ajdar to'lg'ondi. Xotinim uyqusirab gapirindi:

O'zingizning nomingizdan qo'yaqoling.

A?!

Ha-a. Ana shunaqa. Bizning uyqudagi go'zal uyqusida ham aqlli gaplarni aytib yuboraveradi. Tan bermay iloj yo'q. Bo'пти.

Shunday bo'laqolsin. Ana endi hech kim mendan xafa bo'lmaydi. O'zimdan bo'lak... Qulog'im tagida odamlarning "Komilov yana o'zini o'zi hajviya qilibdi-ya" deb qah-qah otib kulishayotgani eshitilgandek bo'ldi...

Ha, bu yana o'zimman, o'zim.